

РЕПЕТЕТОР КИМ?

Shonazarova Lobar G'aybullayevna
Navoiy Davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davrda repetetorlarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. O'z sohasining yetuk mutaxxassislari repetetor hisoblanasi.

Unda maktabdagi o'qituvchilar kim?

Aslida maktab ham oliy dargohga, mustaqil hayot yo'llariga kuzatuvchi eng yaxshi ustoz emasmi?

Kalit so'zlar: Ustoz, o'qituvchi, tanqid, repetetor.

Hozirgi global, jadal sur'atlarda o'sayotgan zamonimizda repetetorlarga talab kundan kunga ortib bormoqda. Ayni bir fanni, sohani o'rgatuvchi, o'z sohasining yetuk, o'ziga ishongan mutaxxaslar repetetorlar hisoblanadi. Xo'sh repetetorlar institut, universitetga, oliy o'quv yurtiga tayyorlaydigan mutaxxasis bo'lsa, unda maktabning, maktabdagi o'qituvchilarning vazifasi nima?

Faqatgina davomat uchun, ustozidan tanbeh eshitmaslik uchungina borilyaptimi, maktabga?

Qanchalik achchiq haqiqat bo'lmasin ayni bir fan o'tilayotgan paytda repetetordagi boshqa fan vazifalarini qilib o'tiradigan o'quvchilarimiz talaygina, eng achinarli tomoni ham shundaki, bunday holatga ustozlarning o'zlari ham befarq bo'lib e'tiborsizlik bilan o'tirishadi.

Har bir sohada xususan ta'limda ham bunday ko'z yumib bo'lmaydigan holatlarni bartaraf qilsak, mustaqil O'zbekistonimiz rivojlanayotgan davlat emas, rivojlangan davlatlar safiga kirishiga aminmiz.

Fan o'qituvchilariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri o'quvchilarni darsga qiziqtirgan holatda o'zi dars berayotgan fan doirasida darsga barchani e'tiborini qaratish, jalb qila olish qobiliyati hisoblanadi. Shundagina ustozlarimizning samaradorlikka erishish darajasi yuqori bo'ladi.

Sidqidildan bolalarga dars o'tayotgan, ularni kamchiliklarini to'ldirishga harakat qilib, ilm-fan uchun o'zining beminnat hissasini qo'shib kelayotgan o'qituvchilarimizga qancha tasannolar aytsak ham kamdir.

Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi. Ta'limdagi bunday achinarli, o'zgartirish biroz mushkul holatlar hozirgi zamonamizning global muammolaridan biridir.

Lekin ko'z yumib o'tolmaydigan holatlarimiz ham talaygina. Xo'ja ko'rsinga dars o'tib, oladigan oyligini ham halolab olmaydigan loqayd, qo'shtirnoq ichidagi fan jonkuyarlari shunday "ustoz" degan ulug' nomga dog' tushuryapti.

Xalq ta'limining bugungi holati

Bugungi kunda O‘zbekistonda **10130 ta** umumta’lim maktablari mavjud bo‘lib, ularning **2730 tasi shaharlarda, 7408 tasi esa qishloqlarda** faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda maktablarda **6246491** nafar o‘quvchi tahsil olmoqda.

Ta’limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan joriy yilning 28 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Davlatimiz rahbari darajasida maktab ta’limi sohasidagi muammolar va dolzarb masalalar qayd etildi, qator takliflar ilgari surildi. Albatta, bunday g‘amxo‘rlik maktab ta’limining ustuvorligidan dalolat beradi. Biroq, maktab ta’limi muammolari tizimli va mustaqil tarzda hal qilinishi kerak. Muammolar chetdan turib hal qilinadi, deb uylash xatodir, shuning uchun xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosatida ishtirok etadigan barcha davlat organlaridan tashabbuskorlik talab etiladi.

Ta’limning asosiy muammolari va uning sifati tushib ketishining sabablari

1. O‘qituvchilar va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlardagi muammolar. Hech kimga sir emaski, yaqin vaqtgacha o‘qituvchilar faoliyatida darslarni yuqori sifatda o‘tkazishga va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qiladigan bir qator ob’ektiv muammolar mavjud bo‘lgan. Paxta terimiga va boshqa tadbirlarga ommaviy jalb qilish, turli hisobotlarni tayyorlash bilan bog‘liq byurokratik to‘siqlar oxir-oqibat o‘qituvchilarni ta’limga aloqasi bo‘lmagan turli ikkinchi darajali vazifalarni bajaruvchi oddiy ijrochilarga aylantirdi. Rahbariyat tomonidan xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli bu muammolarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

"Sen dushmanlaringdan qo‘rqma ularni qachon hamla qilishini sezib turasan, Sen loqayd **odamdan qo‘rq**" degan birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning fikrlari bor.

Bu jumalalarda olamdan olam ma’no yashiringan. Chunki bizni eng katta dushmanimiz bu loqayd insonlardir.

Bu iborani bekorga qo‘llamadim. Sababi hozirgi zamonamizda maktabday oliy dargohda vijnonan ishlamaydigan qo‘shirnoq ichidagi ziyolilar bor. Bular ta’limni tomirdan quritadigan manqurtlaridir.

Bizni 2-kurslik paytimizda 1 oylik malakaviy amaliyotga jo‘natishdi. Maktabdagi ba’zi qo‘shirnoq ichidagi ziyolilarga qarab nafratim qo‘zib ketti. Ular dars berayokkan o‘quvchilarga esa achindim qaysidir ma’noda. Ular hech qachon qaytmaydigan 45 minutlik qimmatli vaqtlarini darsda, o‘qituvchisining qarg‘ishu, so‘kishlarini eshitishga sarflayotganlari uchun.

Agarda mana shunday ziyolilar ta’lim sohasida bo‘lmaganda edi, balki biz uchun, o‘quvchilarimiz, yosh avlod uchun repetetorga ehtiyoj bo‘lmagan bo‘lardi. Ular barcha DTM imtihonlari uchun bilimlarini maktabni o‘zida olishganda edi, o‘zlari va ota-onalari uchun ortiqcha harakat va ortiqcha harajat bo‘lmagan bo‘lardi.

Hozirgi paytda muhtaram prezidentimiz maktab ishini davlat siyosati darajasida ekanligini ta'kidlab, ta'lim uchun, xususan, 2024-yil Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga- 46 trln 647 mlrd 414.5 mln so'm

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirli uchun esa- 6 trln 130mlrd 330 mln so'm ajratishni ko'zda tutadi.

Yurtboshimizning bunchalik jonkuyarliklarini ich ichidan his qilib turgan pedagog ichida so'nmas olovga alanga berishi turgan gap.

Qo'shtirnoq ichidagi o'qituvchilarga esa loqayd bo'lmasdan, kasbiy faoliyati doirasida tushuntirish berish, o'z kasbiga nisbatan kuchli immunitet hosil qilish qilish uchun yuqoridagi kabi ta'lim uchun kiritiladigan investetsiyalardan doimiy ravishda xabardordor qilib turish darkor. Ze'ro qalbida kasbiga nisbatan so'nishga ulgurgan olovni yana qaytadan alanga olishiga erisha olsak.

Muhtaram prezidentimiz ham har safar yoshlar bilan uchrashganlarida har doim takrorlaydigan gaplaridan biri "Menga yonganing kerak" degan so'zlaridir.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, Bunday repetetorga moyillik oshayotganligini sababchilari bu darsga befarq qaraydigan o'qituvchilar, ma'suliyatsiz pedagoglar hisoblanadi. Darsning qay darajada qiziqarli bo'lishida o'quvchilarni diqqatini jamlay olish, o'zidagi bilimlarni yetkaza olishdagi mahorati kuchli rivojlangan bo'lishi lozim. Chunki o'qituvchilar notiq misoli so'zlari tushunarli, teran va qiziqarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Joyi kelganda tanbehni ham mahorat bilan qo'llay olish va o'quvchilarga bir umrga yetadigan saboq berib qo'yish ham o'qituvchi pedagogning vazifasi sirasiga kiritishimiz mumkin.

O'qituvchi pedagog nafaqat mahoratli, kuchli notiq balki, o'quvchi shogirtlarga har jabhada o'rnak bo'la olishi hozirgi zamon talabidir. O'quvchilar shunchalar e'tiborliki, qulog'idagi zirakdan tortib harakatlaridagi qat'iylik yokida kuchsizlikni darrov ilg'ab olishadi.

Shunday ekan qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'i nazar pedagog birinchi navbatda psixolog bo'lishi ham kerak.

Ushbu muammolarni global muammo sifatida olib chiqqan, gazeta.uz saytida intervyu bergan o'qituvchi pedagoglar fikrlari bilan tanishing:

Mohira Eshpo'latova: — Qaniydi, siz bilim berayotgan sohangiz bo'yicha ortiqcha qog'ozbozlik, bosim bo'lmasa! Hamma uchun bitta ish rejasi taqsimlansayu, boshqa ishingizga aralashishmasa! Qo'lingizdagi bitta bo'r, doskangiz bilan ham bilimli o'qituvchi darsini o'ta oladi. O'qituvchida ishtiyoq, bilim va xohish, o'quvchida ilm olishga muhabbat bo'lsin — shuning o'zi yetadi.

Erkin Murodov: — Tizimda besh yuz mingdan ortiq o'qituvchi bor. To'g'ri, hammasi baravar, teng deb aytolmayman. Siz aytgandek, darsini nomiga o'tib, chiqib

ketayotgan o'qituvchilar bordir. Lekin bugungi o'quvchi bunga rozi bo'lmayapti. O'qituvchining dunyoqarashi o'zgarsa, mas'uliyati ham oshadi.

Foydalannilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Muqaddas Saidova (maktab yoki repetetor) maqolasi
- 2) Gazeta.uz google sayti
- 3) Aniq.uz google sayti